



**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**QORAQALPOG'ISTON  
RESPUBLIKASIDA  
QURILISH ISHLARI**

**2023-YIL  
YANVAR-NOYABR  
OYLARI**





# Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida jami **5339,8** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **108,5 %** ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.






## Qurilish ishlari 2023-yil yanvar-noyabr oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik korxonalar va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>5339,8</b>	<b>460,7</b>	<b>3730,1</b>	<b>1149,0</b>
<b>Nukus sh. tumanlar:</b>	<b>1722,9</b>	<b>19,7</b>	<b>1578,1</b>	<b>125,1</b>
Amudaryo	296,2	-	181,0	115,2
Beruniy	316,2	-	175,3	140,9
Bo'zotov	89,8	-	70,5	19,3
Qorao'zak	243,3	156,0	69,5	17,8
Kegeyli	117,3	9,2	89,0	19,1
Qo'ng'iro't	300,5	68,3	207,6	24,6
Qonliko'l	113,1	-	41,5	71,6
Mo'ynoq	114,9	77,0	18,4	19,5
Nukus	297,5	-	216,9	80,6
Taxiatosh	252,2	51,7	173,5	27,0
Taxtakopir	71,3	-	55,8	15,5
To'rtko'l	569,3	69,8	326,9	172,6
Xo'jayli	190,8	-	131,4	59,4
Chimboy	165,3	-	49,3	116,0
Shumanay	52,8	-	16,1	36,7
Ellikqal'a	426,4	9,0	329,3	88,1

2023-yilning yanvar-noyabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 460,7 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 124,0 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 1,0 % punktga ko'payib, 8,6 % ni tashkil etdi.

## Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



**MA'LUMOT UCHUN:** Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Mo'ynoq tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 67,0 % i yoki 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 369,2 %), Qorao'zak tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 64,1 % yoki 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 11,5 martaga ko'p %), Qo'ng'iro't tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 22,7 % i yoki 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 52,5 %) va Taxiato'sh tumani (tumandagi jami qurilish ishlari hajmining 20,5 % yoki 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 136,2 %) ga to'g'ri keldi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023-yilning yanvar-noyabr oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 69,9 % i to'g'ri kelib, 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 1,3 % punktga kamaygan. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 107,5 % ni tashkil etgan holda 3730,1 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

## Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



71,2

2023-yil  
yanvar-noyabr


69,9

2022-yil  
yanvar-noyabr



**MA'LUMOT UCHUN:** Joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori hajm ko'rsatkichi Nukus shahri (1 578,1 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 91,6 %), Ellikqal'a tumani (329,3 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan ulushi 77,2 %), To'rtko'l tumani (326,9 mlrd. so'm yoki 57,4 %) ga to'g'ri keldi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **21,5 %** ni tashkil etdi yoki **1149,0 mlrd.so'm** miqdorida qayd etildi. 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan **106,2 %** ni tashkil etdi.



## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **82,6 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **5257,2 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **1,6 %** va **98,4 %** ni tashkil etdi.



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi  
2023-yil yanvar-noyabr oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **75,1 %** i yoki **4007,9** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**10,5 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **419,0** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **10,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **2529,6** mlrd. so'm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi **63,1 %** ni tashkil etdi.

**63,1 %**

**26,4 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1059,3** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **26,4 %** ni tashkil etdi.




# Shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2023-yil yanvar-noyabr oylarida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
<b>Qoraqalpog'iston Respublikasi</b>	<b>5339,8</b>	<b>108,5</b>	<b>100,0</b>
<b>Nukus sh.</b>	<b>1722,9</b>	<b>105,6</b>	<b>32,3</b>
<i>tumanlar:</i>			
Amudaryo	296,2	108,3	5,5
Beruniy	316,2	101,4	5,9
Bo'zotov	89,8	166,8	1,7
Qorao'zak	243,3	225,2	4,6
Kegeyli	117,3	102,7	2,2
Qo'ng'iro't	300,5	81,5	5,6
Qonliko'l	113,1	106,9	2,1
Mo'ynoq	114,9	170,0	2,1
Nukus	297,5	101,8	5,6
Taxiatosh	252,2	103,0	4,7
Taxtako'pir	71,3	86,0	1,3
To'rtko'l	569,3	107,4	10,7
Xo'jayli	190,8	108,6	3,6
Chimboy	165,3	130,2	3,1
Shumanay	52,8	112,8	1,0
Ellikqal'a	426,4	109,7	8,0



# Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 6,3 % ni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 3,9 % punktga ko'paygan.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 3,4 % punktga kamayib, 64,2% ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 0,5 % punktga kamaydi va 29,5 % ni tashkil etdi.


Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 14,6 % ni tashkil etdi va 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 2,7 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 85,4 % ni tashkil etdi.

## ulushi % da




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 16,6 % punktga kamaydi va 16,2 % ni tashkil etdi. Qolgan, 83,8 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022-yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan 16,6 % punktga ko'paydi.



# Korxonalar turlari bo'yicha shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari 2023-yil yanvar-noyabr oylari



ulushi % da



Qoraqalpog'iston Respublikasi  
Statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: (61) 222-75-91